

Tabiat muzeyiga tashrif

GTQ fakulteti 211 - guruh talabalari 2018 yilning 29 noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tasarrufidagi O'zbekiston Davlat tabiat muzeyiga tashrif buyurishdi. Tabiat muzeyi — eng keksa, ilmiy-ma'rifiy muassasa hisoblanadi. U 1876 yil 12 iyulda tashkil etilgan. Markaziy Osiyoda birinchilardan bo'lib faoliyat yurita boshlagan muzeylardan biri O'zbekiston Davlat tabiat muzeyidir. Muzeyning tarixi asosan o'lkashunos olimlar va sayohatchilar bilan bog'liq. 1870 yilning oxirlarida Toshkent shahrida tuzilgan "Tabiatshunoslik, antropologiya va etnografiya bilan qiziquvchilar jamiyati"ning Turkiston bo'limi a'zolari, o'lkashunos olim-sayohatchilar, zoologlar, tarixchi va boshqalar tomonidan Markaziy Osiyo hududlarida bir qator ilmiy ekspeditsiyalar uyushtirish natijasida yig'ilgan ilmiy kolleksiyalarni saqlash, ularni o'rganish va keng ommaga tanishtirish maqsadida muzey tashkil etish g'oyasi ilgari surildi. Keyinchalik ushbu g'oya va takliflar muzeyning tashkil etilishi uchun asos bo'ldi va 1876 yil 12 iyulda Toshkent shahridagi Ipakchilik maktabi qoshida "Toshkent muzeyi" rasmiy ravishda o'z faoliyatini boshladi. Muzey tashrif buyuruvchilarni Turkiston tabiati, tabiiy boyliklari va shu o'lkada yashovchi xalqlarning turmush tarzi bilan tanishtirar edi. 1876 yilning oxiriga borib muzeyda 1400 dan ortiq eksponat mavjud bo'lgan. Ushbu muzey 1918 yildan O'rta Osiyo davlat universiteti qoshida "Turkiston xalq muzeyi" nomi bilan faoliyat yurita boshladi. 1921 yilda esa muassasa "Muzey va qadimgi yodgorliklarni saqlash, san'at va tabiat ishlari bo'yicha qo'mita" tasarrufiga o'tkazilib, "O'rta Osiyo bosh muzeyi" nomini oldi. 1930 yilda muzeyning tabiat bo'limlari, Qishloq xo'jalik muzeyi hamda Zoologiya bog'i bilan birlashtirilib, "O'rta Osiyo tabiat muzeyi va ishlab chiqarish kuchlari" nomini oldi. 1935 yil yanvar oyida bu birlashmaning tabiat sho'basini "O'zbekiston Davlat tabiat muzeyi"ga aylantirildi.

Muzeyda quyidagi 4 bo'lim faoliyat ko'rsatadi: flora-fauna bo'limi, geologiya-geografiya bo'limi, ilmiy-ma'rifat bo'limi, fond bo'limi. O'zbekiston Davlat tabiat muzeyi O'zbekistondagi muzeylar ichida birinchi bo'lib tabiatni namoyish qilishning landshaft usulini ishlab chiqdi av o'z ekspozitsiyalarida amalga oshirdi. Bu usul tabiat hodisalarini o'zaro bog'liqligi to'g'risida yaqqol tasavvur beradi. Muzey fondida 400 mingdan ortiq namuna bor: shu jumladan, 300 mingdan ortiq hasharotni o'z ichiga olgan O'rta Osiyoda eng yirik entomologiya fondi, umurtqali hayvonlarning 4000 ga yaqin tulumlari va shu qatorda 500 ta namunadan iborat Zoologiya (tuxumlar) kolleksiyasi mavjud, ming varaq gerbariydan iborat botanika fondi hamda zoologiya va geografiya materiallari faqatgina O'zbekiston olimlari o'rtasida emas, balki Mustaqil Hamdo'stlik Mamlakatlarida ham mashhur. Muzeyga tashrif g'oyat qiziqarli bo'ldi fan o'qituvchisi hamda talabalar muzeyning yoshlarni tabiatga muhabbat ruhida tarbiyalashda ulkan hissasi borligini e'tirof etishdi.



"Tuproqshunoslik va dehqonchilik" kafedrasini katta o'qituvchisi D. Alikariyeva axboroti

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov